

SANOAT MULKI OBYEKTLARINING XALQARO HUQUQIY VAQTINCHALIK HIMOYASI

Karimova Kumushoy Abduraxmon qizi

**Toshkent davlat yuridik universiteti, mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari
mutaxassisligi magistranti.**

karimovakumushoy71@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11526528>

Annotatsiya

Sanoat mulkining vaqtincha muhofazasi ta'minlanishi uchun qo'yiladigan talablar va ularning himoyasi bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar masalasi ko'rib chiqiladi. Sanoat mulkining muhofazasi bo'yicha Parij konvensiyasi hamda milliy qonunchilik hujjatlarini o'rganish orqali sanoat mulkining vaqtincha muhofazasini belgilash va tahlil qilish mezonlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sanoat mulki, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, talabnoma, patentga layoqatlilik, vaqtincha muhofaza.

O'zbekiston Respublikasi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunda sanoat mulki obyektlarining vaqtincha muhofazasi borasida so'z boradi. Vaqtincha muhofaza tayinlanishi uchun mazkur sanoat mulki obyektlari bir qator jarayonlardan o'tishi lozim bo'ladi. Birinchi navbatda, yaratilgan ixtiro, foydali modellar va sanoat namunalarining patentga layoqatliligi tekshiriladi. Bunda mazkur obyektlarning har biriga alohida talablar qo'yiladi. Ixtirolarga ixtironing yangiligi, ixtirolik darajasiga egaligi va uni sanoatda qo'llash mumkinligi shartlari, foydali modellarga esa obyekt yangiligi va sanoatda qo'llash mumkinligi shartlari qo'yiladi. Bunda ixtironing yangiligi deyilganda, ixtironing muallifi yoki uning huquq egasi tomonidan yaratilgan ixtiroga patent olish uchun talabnoma topshirgan paytgacha bo'lgan muddatda bunday ixtirolar yaratilmaganligi va uning bu doiradagi mutaxassislarga ham ma'lum bo'lmaganligi tushunilsa, ixtirolik darajasi deyilganda esa ixtiro muallifi yoki uning huquq egasi tomonidan talabnoma topshirgan paytgacha bo'lgan davrda butun dunyoda ixtirolar borasida oshkor etilgan ma'lumotlarning yaratilgan ixtironing yaqqol ko'rinib turmasligi tushuniladi. Ixtironi sanoatda qo'llash deganda, yaratilgan ixtironi sanoatda, qishloq xo'jaligi, sog'liqlikni saqlash va boshqa sohalarda qo'llay olish imkoniyati bo'lishini tushunish mumkin. Foydali modellarning yangiligi deyilsa, talabnoma topshirilgan sanagacha bo'lgan davrda yaratilgan obyekt bilan bir xil vazifalarni bajara oladigan vositalar haqida ma'lumotlarni mavjud bo'lmasligi tushuniladi hamda bu boradagi ma'lumotlar doirasi talabnomaning turiga qarab belgilanadi. Masalan, foydali modelga patent olinishi uchun talabnoma milliy doirada topshirilsa, aynan o'sha davlat hududidagi, xalqaro doirada topshirilsa, nechta davlat hududida foydali modelning amal qilinishi nazarda tutilsa, o'sha davlatlar doirasidagi ma'lumotlar kiradi. Foydali modelning sanoatda qo'llanilishida yaratilgan foydali modelning amaliyotda qo'llay olish imkoniyati borligi tushuniladi.

Sanoat namunalariga patentga layoqatlilik darajasi uning yangiligi va orginalliligi bilan baholanadi, ya'ni bunda shuni tushunishimiz mumkinki, yaratilgan sanoat namunasi muhim belgilari talabnoma topshirilgan paytgacha bo'lgan muddatda jahonda bu borada oshkor etilgan ma'lumotlarda aks etmaganligi, orginalligi deyilganda, sanoat namunasi muhim

belgilari jamlanmasi uning yaratuvchisining ijodiy yondashuvi bilan yaratilgan bo'lishi tushuniladi.

Yuqorida aytib o'tilgan sanoat mulki obyektlariga patent olish uchun talabnoma topshirish jarayonida ularning berilgan sanalariga ahamiyat beriladi. Ya'ni, kim birinchi talabnoma topshirsa, o'shaning ixtirosi, foydali modeli yoki sanoat namunasiga patent beriladi. Demak, yuqorida ko'rsatilgan shartlarga to'liq javob bera oladigan ixtiro, foydali model va sanoat namunalari nisbatan vaqtincha muhofaza muddati tayinlanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunga ko'ra vaqtincha muhofaza davri 6 oy etib belgilangan, ya'ni bu muddat yuqorida ko'rsatilgan talabnomaning ustuvorligi hamda patentga layoqatlilik shartlariga javob bera oladigan talabnoma topshirgan muddatidan boshlab olti oy davomida amal qiladi. Vaqtincha muhofaza davri talabnoma topshirilgan sanadan boshlab unga patent berilgan sanagacha amal qiladi. Bunda talabnoma chaqirib olingan, ya'ni qaytarib olingan hamda davlat ekspertizasi va rasmiy ekspertiza talablariga javob bermagan hollar kirmaydi. Davlat ekspertizasida talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasi, rasmiy ekspertizada esa taklifning huquqiy muhofaza ta'minlanadigan sanoat mulki obyektlariga qay darajada muvofiqligi ko'rib chiqiladi¹.

Parij Konvensiyasi bo'yicha sanoat mulki obyektlariga "xalqaro" talabnoma berilganda ularning vaqtincha muhofazasi 12 oyni tashkil qiladi.² Xalqaro talabnoma deyilganda, Parij konvensiyasiga a'zo davlatlar hududidagi davlatlarda patent olish uchun beriladigan talabnoma tushuniladi. Bunda bir vaqtning o'zida konvensiyaga a'zo davlatlarning barchasiga yoki ulardan bir nechtasiga nisbatan talabnoma topshirish mumkin bo'ladi. Bu jarayon talabnoma beruvchining tanloviga ko'ra amalga oshiriladi. Parij Konvensiyasi bo'yicha xalqaro talabnoma berilganda talabnomaga nisbatan xalqaro ustuvorlik belgilanadi. Xalqaro ustuvorlikning milliy ustuvorlikdan farqli tomoni, talabnoma topshirilganda patent olinishi mo'ljallangan davlatlar hududida talabnoma topshirilgan sanasi asosiy rol o'ynadi, ya'ni aynan bir xil turdagi ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasiga nisbatan talabnoma topshirilganda aynan shu turdagi undan oldin talabnoma topshirgan shaxsga ustunlik beriladi. Milliy ustuvorlikda esa talabnoma topshirilgan muayyan davlat hududidagi mahalliy doiradagi talabnomalar orasidan birinchi topshirilgani saralab olinib, unga ustunlik beriladi.

Muallif huquqida asarning yaratilish fakti mualliflik huquqini keltirib chiqarsa, ixtiro, foydali model va sanoat namunasining yaratilganligi unga nisbatan mualliflik huquqini himoya qilmaydi. Ya'ni, bunday huquqlar himoya qilinishi uchun agarda talabnoma topshirilgan bo'lsa, u topshirilgan doiraga qarab, masalan, milliy doirada topshirilgan bo'lsa, aynan o'sha hududda, xalqaro doirada topshirilgan bo'lsa, tanlab olingan davlatlar ichida unga nisbatan mualliflik huquqlari himoyalaniishi mumkin bo'ladi. Agarda topshirilgan talabnoma yuqorida aytib o'tilgan patentga layoqatlilik shartlariga, ustuvorlik belgilash shartlariga to'liq javob bera oladigan bo'lsa. Bunday himoya turi himoya vaqtinchalik himoya hisoblanadi, ya'ni talabnoma topshirilgan sanadan boshlab unga patent berilgunga qadar bo'lgan himoyasi nazarda tutiladi.

¹ <https://lex.uz/docs/-76671>

² <https://www.wipo.int/pct/en/>

References:

1. Intellektual mulk. Darslik. Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Oqyulov, yu.f.f.d.(PhD), dotsent N.E.Gafurova // Mualliflar jamoasi.-T.: TDYU nashriyoti, 2019. - 588 bet.
2. Право интеллектуальной собственности: учебник и практикум для академического бакалавриата / под общ. ред. Е. А. Поздняковой. — М. : Издательство Юрайт, 2016. — 275 с. — Серия : Бакалавр. Академический курс.

INNOVATIVE
ACADEMY